

YO'RIQNOMA MATNI ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQ VA TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH



Qo'yliyeva Gulshoda

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

3- kurs talabasi

gulshodaqoyleyeva9@gmail.com

Annotation:

Ushbu maqola 9-sinf o'quvchilari uchun yo'riqnomma matni asosida nutq va matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda yo'riqnomma matnining ta'riflari, ahamiyati, shuningdek, o'quvchilarga samarali o'qitish uchun tayyorlangan interaktiv va kreativ topshiriqlar tizimi keltiriladi. Topshiriqlar orqali o'quvchilarning tahlil, mantiqiy fikrlash, yozma nutq va amaliy bilimlarni shakllantirishga erishiladi.

Kalit so'zlar: yo'riqnomma matni, o'qib tushunish, nutq ko'nikmalar, o'quvchi faoliyati, topshiriqlar, 9-sinf, ta'lim metodikasi

Annotation

This article is devoted to the study of methods for developing speech and reading comprehension skills for 9th grade students based on the instructional text. It provides definitions and significance of the instructional text, as well as a system of interactive and creative tasks prepared for effective teaching of students. Through tasks, students are able to develop analytical, logical thinking, written speech and practical knowledge.

Keywords: instructional text, reading comprehension, speech skills, student activity, tasks, 9th grade, teaching methodology.

O‘qib tushunish — bu til va matnni o‘rganish jarayonida eng muhim ko‘nikmalardan biri bo‘lib, u o‘quvchining yozma ma’lumotlarni anglab, mazmunini to‘liq idrok etishi, shuningdek, undan foydali ma’lumotlarni ajratib olish qobiliyatidir. O‘qib tushunish nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda, kasb-hunar tanlashda, ilmiy va texnik bilimlarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish har qanday ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. O‘qib tushunish jarayoni murakkab bo‘lib, unda bir necha bosqichlar mavjud: matnni e’tibor bilan o‘qish, so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri anglash, matnning asosiy mazmuni va maqsadini tushunish, mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash, xulosalar chiqarish va olingan ma’lumotlarni amaliy hayotda qo‘llash. O‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasi yuqori bo‘lsa, ular har qanday matndan samarali foydalanishi, murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishi va o‘z fikrini aniq ifoda eta olishi mumkin.

O‘qib tushunishni rivojlantirishda turli matn turlari muhim o‘rin tutadi. Ularning ichida yo‘riqnomalar — amaliy, funksional matn turi sifatida alohida ahamiyatga ega. Yo‘riqnomalar matni kundalik hayotda keng qo‘llaniladi, masalan, maishiy texnika, elektron qurilmalar, kompyuter dasturlari, avtomobillar va boshqa texnik vositalarning to‘g‘ri va xavfsiz ishlatilishini ta’minlashda yordam beradi. Yo‘riqnomalar matni o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni, ketma-ketlikni anglashni va aniq ifodani shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki bunday matnlar qat’iy tartibda bajarilishi lozim bo‘lgan amallarni bosqichma-bosqich tushuntiradi. Shu bilan birga, yo‘riqnomalar matni o‘quvchilarda matnni tahlil qilish, qisqartirish va oddiy so‘zlar bilan qayta ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini yaratadi. Ta’lim jarayonida yo‘riqnomalar matni asosida topshiriqlar tuzish nafaqat o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasini oshiradi, balki ularni amaliy bilimlarga yo‘naltiradi, ijodiy va tanqidiy

fikrlashni rag‘batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlarga bog‘lash orqali o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish samaradorligi oshadi.

Quyida keltiriladigan topshiriqlar yo‘riqnomma matni asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir topshiriq o‘quvchining o‘qib tushunish, matndan muhim ma’lumotlarni ajratib olish, tartib va izchillikni aniqlash, hamda fikrni aniq bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Yo‘riqnomma matni

Electronics kafolati quyida ko‘rsatilgan muddat va shartlar asosida mahsulotni bepul ta’mirlash yoki uning qismini almashtirishni ko‘zda tutadi. LG Electronics kafolati xaridorning qonuniy huquqlarini cheklamaydi. Ushbu Katolat mahsulotni xarid qilgan ilk shaxsga nisbatan hamda u sotib olingan mamlakatda amal qiladi.

Agar LG Electronics kafolatidan foydalanish zarurati tug‘ilsa, LG Electronics mijozlarni qo‘llab- quvvatlash markaziga yoki sotuvchiga murojaat qiling (barcha qo‘ng‘iroqlar bepul)

Kafolat muddati va shartlari



LG Electronics kafolati ashyodagi va ishlab chiqarishdagi nuqsonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Shu tufayli, boshqa har qanday nuqson hamda mahsulotdan noto‘g‘ri foydalanish, uni noto‘g‘ri sozlash, noto‘g‘ri muvozanatlash va o‘rnatish, foydalanuvchi yoki o‘rnatish bo‘yicha qo‘llanmaga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelgan zararlar, shuningdek, begona moddalar, hashoratlar mahsulot ichiga kirish holatlari, tashqi omillar ta’sirida yuzaga kelgan shikastlar, kosmetik shikastlar va normal foydalanish oqibatida paydo bo‘lgan shikastlarga nisbatan ushbu kafolat qo‘llanilmaydi.

- LG Electronics kafolati muddati mahsulot xarid qilingan sanadan boshlanib, u faqat LG Electronics kafolati muddati davrida ogohlantirilgan ashyolardagi va ishlab chigarishdagi nuqsonlarga nisbatan amal qiladi.
- LG Electronics kafolati faqat xarid haqidagi hujatning asl (qo‘lda yozilmagan) nusxasi ko‘rsatilgandagina haqiqiy hisoblanadi.
- LG Electronics kafolati mahsulot tarkibini o‘zgartirish yoki LG Electronics vakolatiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan ta’mirlash, mahsulotning seriya raqamini soxtalashtirish yoki o‘chirish, maishiy texnikani modernizatsiya qilish yoki undan professional maqsadda foydalanish ishlari amalga oshirilganidan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotadi.
- Mahsulotni ta’mirlash yoki uning qismini almashtirish haqidagi qaror faqat LG Electronics tomonidan qabul qilinadi. Almashtirilgan qismlar va ashyolar LG Electronics mulkiga aylanadi.
- Ta’mirlash yoki almashtirishdan boshga xarajatlar LG Electronics kafolati tomonidan ko‘zda tutilmagan.
- LG Electronics dasturiy ta’minot yoki ma’lumot tashuvchi qurilmalarga yetgan har qanday zarar yoki yo‘qotish uchun javobgar emas.

*Bepul ehtiyyot qismlar almashtirilishi va bepul xizmat ko‘rsatilishini o‘z ichiga oladi. Bepul xizmat ko‘rsatish muddati sotib olingan kundan boshlanadi.

*Faqat mahsulot qismlari. Nuqsonli qismlarni almashtirish uchun sarflangan har qanday mehnat yoki uyda bajarilgan xizmat uchun mijozning o‘zi mas’ul bo‘ladi.

Diqqat! Ushbu kafolat taloni haqiqiy hisoblanishi uchun ham muqovada, ham kuponlarda sotuvchining muhri va imzosi bo‘lishi lozim. Haqiqiy sotib olingan kunini isbotlash maqsadida, sotuvchi tomonidan berilgan tovar chekini saqlab qo‘ying.

1-topshiriq. Matnni tushunish bo‘yicha tuzilgan quyidagi test savollarining to‘g‘ri javobini toping.

1. Quyidagi holatlardan qaysi biri kafolat shartlari doirasiga kiradi?

A. Qurilmaga hasharotlar kirib ketganligi sababli nosozlik yuzaga kelgan bo‘lsa

- B. Mahsulotni noto‘g‘ri sozlash natijasida shikastlangan bo‘lsa
- D. Ishlab chiqarishdagi konstruktiv xato sababli nuqson chiqqan bo‘lsa
- E. Qurilma foydalanuvchi tomonidan modernizatsiya qilingan bo‘lsa

2. Kafolatning amal qilish muddati qanday aniqlanadi?

- A. Qurilmaning birinchi nosozligi paytida boshlanadi
- B. Ishlab chiqarilgan sanadan boshlab hisoblanadi
- D. Mahsulotni xarid qilgan kundan boshlab kuchga kiradi
- E. Kafolat varaqasi to‘ldirilgan kundan boshlab hisoblanadi

3. Quyidagilardan qaysi biri LG Electronics’ning kafolat shartlaridan biri hisoblanadi?

- A. Foydalanuvchi mahsulotni ta’mirlashga ruxsat berganidan so‘ng kafolat kuchga kiradi
- B. Faqat LG tomonidan belgilanmagan nosozliklar uchun xizmat ko‘rsatiladi
- D. Foydalanuvchi qo‘llanmasiga amal qilmaslikdan kelib chiqqan zararlar kafolat doirasiga kiradi
- E. Ishlab chiqarishdagi texnik nuqsonlar kafolat bilan qoplanadi.

2-topshiriq. “Bosqichlarni tartib bilan joylashtiring”

Sizga kir yuvish mashinasini o‘rnatish jarayoniga oid rasmlar taqdim etilgan. Har bir rasm o‘rnatishning muayyan bosqichiga tegishli. Ammo rasmlar tartibsiz berilgan.

Vazifa:




1. Har bir rasmni diqqat bilan kuzating.
2. Jarayonni tushungan holda rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.
3. Har bir rasm ostiga bosqich raqamini yozing (1, 2, 3, 4, 5).
4. Sababini qisqacha izohlang: nima uchun bu bosqich shu tartibda bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

3-topshiriq. *Rasmdagi ko‘rsatmalarga asoslanib, kir yuvish mashinasining tozalash va texnik xizmat ko‘rsatish jarayonini ketma-ket gaplar bilan izohlang. Har bir bosqichda nimalar bajarilishini sodda, tushunarli jumlalar bilan bayon qiling.*

Masalan:

1. Avvalo, mashina suvgaga ulanadigan filtr yechib olinadi.
2. So‘ng, filtr ichidagi iflosliklar tozalanadi... va hokazo.



Xulosa qilib aytganda, mazkur topshiriqlar majmuasi o‘quvchilarning amaliy savodxonligini, mantiqiy fikrlashini va funksional bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kafolat muddati va shartlariga doir test topshirig‘i orqali o‘quvchi texnik va huquqiy axborotni tahlil qilishni o‘rganadi. Rasm ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirish topshirig‘i esa vizual axborotni mantiqiy tahlil qilish, tizimli fikrlash va texnologik jarayonlarni anglash ko‘nikmalarini shakllantiradi. So‘nggi topshiriqda rasm asosida izohli gaplar tuzish orqali o‘quvchi og‘zaki va yozma nutqda bosqichma-bosqich fikr bildirish, real hayotiy vaziyatni ifodalashga o‘rganadi. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarning hayotga yaqin, amaliy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev A.R., Po‘latova Y.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. 244-bet.
2. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: 2020. 198-bet.
3. Saidvaqqosova U.T. O‘quvchilar nutqini o‘stirish metodikasi // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES 8 (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda.
4. Юсупова Т. А. To develop students’ knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // ACADEMICIA A n I n t e r n a t i o n a l M u l t i d i s c i p l i n a r y R e s e a r c h J o u r n a l (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
5. Xusenova N.O Ona tili metodikasi mashg‘ulotlarida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda sinov-test topshiriqlaridan foydalanish // Academic Reserch in Educational Sciences // ISSN 2181-1385 DOI: 10.24412/1385-2022-2-105-117 Volume 3/ISSUE 2/2022 Cite-factor: 0,89 / SIS: 1,12 SJIF 5.7 / UIF:6,1

6. Jurayeva M.M. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES 8 (CARJIS) ilmiy jurnalı bilan hamkorlikda.

References:

1. Hamroyev A.R., Po‘latova Y.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. 244-bet.
2. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: 2020. 198-bet.
3. Saidvaqqosova U.T. O‘quvchilar nutqini o‘stirish metodikasi // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES 8 (CARJIS) ilmiy jurnalı bilan hamkorlikda.
4. Юсупова Т. А. To develop students’ knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // ACADEMICIA A n I n t e r n a t i o n a l M u l t i d i s c i p l i n a r y R e s e a r c h J o u r n a l (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
5. Xusenova N.O Ona tili metodikasi mashg‘ulotlarida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda sinov-test topshiriqlaridan foydalanish // Academic Reserch in Educational Sciences // ISSN 2181-1385 DOI: 10.24412/1385-2022-2-105-117 Volume 3/ISSUE 2/2022 Cite-factor: 0,89 / SIS: 1,12 SJIF 5.7 / UIF:6,1
6. Jurayeva M.M. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES 8 (CARJIS) ilmiy jurnalı bilan hamkorlikda.